

**UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING
ZAMONAVIY O'QITISH TEXNOLOGIYALARI**

Ostanova Ma'mura Ulug'bek qizi, Aminov Istam Barnoyevich

Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining O'zbekiston- Finlandiya
pedagogika institute

Annotatsiya: Ushbu maqolada uzluksiz ta'lismida o'qitish texnologiyalariga yukori sifatni ta'minlovchi tizimli va kompleks yondoshish masalalar yoritiladi.

Kalit so'zlar: o'qitish texnologiyalari, ta'lim jarayonini axborot-lashtirish m tizimli va kompleks yondoshish, masofadan o'qitish texnolo-giyalari.

Hozirgi kunda jamiyatni rivojlanishining zamonaviy bosqichi fan, texnika va texnologiyani rivojlanishining innovatsion modellariga o'tish bilan xarakterlanadi. Bunda esa kompyuter, axborot va telekommunikatsion texnologiyalar katta mavqega va ahamiyatga ega bo'ladi.

Talabalar zamon talablarniga javob beradigan darajada bilim olishligida yangi axborotlarni elektron ko'rinishda o'zlashtirishlari yanada yuqori samara bermoqda. Ta'larning yangi turi rivojlanishiga ta'lrim metodikasi, axborot texnologiyalari va foydalanuvchilarning xizmat ko'rsatish darajasi kabi sohalarda fundamental yutuqlar katta ta'sir ko'rsatayotganligi ko'rinish turibdi.

Ta'limga alohida usullardan foydalanishda o'qitish texnologiyalariga yukori sifatni ta'minlovchi tizimli va kompleks yondoshish katta ahamiyat kasb etmoqda. SHunisi quvonarlik, keyingi davrlarda qishloq joylarida istiqomat qiluvchi aholi foydalanishi uchun ham ko'plab internet tarmoqlari va shu jumladan, boshqa ma'lumotlarni uzatish vositalaridan foydalanish uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Bu bora ta'limga muassasalari o'rtasidagi muloqotlar olib boriladigan tadbirlar va videokonferensiyalar kata rol o'yndaydi.

Talabalar chuqur bilim oshirishlari uchun yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish yanada keng imkoniyatlar yaratadi. Bu barcha mutaxassislar bilimlar va malakalarini kengaytirishda ham muhim o‘rin tutadi.

Yuqoridagi vazifalarni samarali amalga oshishida asosiy e’tibor birinchi navbatda, ta’lim sifatiga qaratilishi zarur, bunga multimediyali texnologiyalarni qo‘llash, o‘qituvchi va o‘quvchining interfaol o‘zaro aloqalarini ta’minalash, o‘quv kurslari va o‘quv darsliklarini ishlab chiqishda yuqori malakali kadrlarni jalg etish kerak bo‘ladi.

Bunday sharoitda ta’lim jarayonini kompyuterlashtirish va axborotlashtirish muammosi muhim va dolzarb masalalardan biri bo‘lib hisoblanadi.

Ana shunday masalalardan biri ta’lim jarayonini takomillashtirish uchun, zamonaviy o‘qitish texnologiyalaridan keng foydalanish uslubiyatini yaratishdir.

Hozirgi kunda o‘quv jarayonida o‘qitish texnologiyalaridan masofadan o‘qitish tizimidan foydalanish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, uning asosiy vazifasi qo‘yidalardan iborat:

1. Ta’lim jarayonida fanlardan bilim olishda talabalarni o‘qish va tassavvurlash faoliyatini rivojlantirishga mo‘ljallangan masofadan o‘qitish tizimida dasturiy vositalardan foylanishning holati va istiqbollarini tahlil qilish.

2. Masofadan o‘qitish tizimida dasturiy vositalarga qo‘yiladigan ilmiy va uslubiy talablarini hamda ularning o‘zaro bog‘liqligini asoslash.

3. Talabalarni o‘qish va tassavvurlash faoliyatini rivojlantirish modelini masofadan o‘qitish tizimining dasturiy va pedagogik imkoniyatlari yordamida asoslash.

4. O‘quv jarayonida axborotlarni tasvirlash va ifodalashning asosiy ko‘rinishi masofadan o‘qitish tizimida dasturiy vositalarning asosiy tuzilishi, tarkibiy qismlari va didaktik elementlarini ko‘rsatib berish.

Masofadan o‘qitish – bu o‘qitishning progressiv metodlari va texnologiyalari bo‘lib, yangi o‘quv metodologiyasiga va telekommunikatsiyaga asoslangan bo‘lib, o‘qitishning barcha formalari sifatli uzluksizligi va samaradorligini oshirish uchun xizmat qiladi.

Masofadan o‘qitish – o‘qituvchi tomonidan bilimlarni uzatish jarayoni, masofadan o‘qitish – o‘quvchilarni bilim olish jarayoni. SHunday qilib, masofadan o‘qitish – masofadan o‘qitish jarayonini amalga oshiriladigan va huquqiy, o‘quv – uslubiy, dasturiy texnik va kadrlar ta’minoti kabi o‘zaro bir-biri bilan bog‘liq elementlarni o‘z ichi oladigan tizim bo‘lib, unda o‘quvchilar mustaqil o‘qish, o‘rganish va o‘zlariga qulay vaqtini tanlash imkoniyatiga ega bo‘lib, u o‘quv jarayonini idinfikatsiyalash va individuallashtirish imkonini beradi.

Masofadan o‘qitish tizimi uchun kerakli o‘quv materiallar qabul qilish, Internet tarmoqlaridan asosan sinxron (on-line) va sinxron (off-line) ko‘rinishlarida amalga oshiriladi. Lekin hozirgi kunda masofadan o‘qitish tizimida ma’lumotlarni olishning boshqa ko‘rinishlari ham paydo bo‘lmoqda. Bunga axborot va kompyuter texnologiyalarining texnik va dasturiy jihatdan rivojlanayotganligi, hamda Internet tarmog‘iga ulanishning arzonligi va undan foydalanishning oddiyligi asosiy sabab bo‘lmoqda.

Axborot va kompyuter texnologiyalari asosida masofadan o‘qitish tizimi samaradorligini oshirish quyidagi shart-sharoitlarga va omillarga bog‘liq bo‘ladi:

- zamonaviy axborot va kompyuter texnologiyalari bazasini mavjudligi va etarliligi;
- Internet tarmog‘ida ishslashning uzlucksizligi;
- masaofadan bilim olayotgan o‘quvchilarning bilim olish ishtiyoqining va o‘zlashtirish darajasining yuqoriligi;
- masofadan o‘qitish tizimiga bilimli, malakali va tajribali o‘qituvchilarning jaib etilishi;
- masofadan o‘qitish tizimining kerakli va sifatli o‘quv materiallari, elektron darsliklar va o‘quva kurslari Bilan ta’minlanganligi va ularning etarliligi;
- masofadan o‘qitish tizimida mashg‘ulotlarni tizimli tarzda olib borish.

Axborot texnologiyalari asosida masofadan o‘qitish tizimining samaradorligini oshirish ko‘p jihatdan yaratilayotgan va qo‘llanilayotgan pedagogik dasturiy vositalar – o‘quv dasturlari, elektron qo‘llanmalar, avtomatlashtirilgan o‘qitish kurslari va hokazolar mazmuniga va sifatiga bog‘liq bo‘ladi.

Masofadan o'qitish tizimida dasturiy vositalar ma'lum bir fan sohasini yoki predmetni o'rganish uchun mo'ljallangan bo'lib, o'qitish jarayonida yoki talabalarni mustaqil bilim olishida ko'proq foydalaniladi. Masofadan o'qitish tizimida nazariy, amaliy va nazorat mashg'ulotlarini tashkillashtirish o'quv dasturlarining o'rniga qarab foydalanish ham o'quv jarayoni samaradorligini oshirishda muhim omil bo'lib hisoblanadi.

Axborot texnologiyalari asosida masofadan o'qitish tizimi traditsion o'qitish tizimi bilan uyg'unlashgan holda amalga oshiriladi. Buning uchun masofadan o'qitish tizimida interfaol Internet texnologiyalar: chat, muammoli munozaralar, telekonferensiyalar, o'qituvchi va talabalarni muloqot qilish uchun e'lonlar oynasi, talabalarni bilimini nazorat qilish va baholash, turli xil trenajyorlar qo'llaniladi.

Bundan tashqari talabalar mustaqil bilim olishida, o'tilgan mavzularni takrorlashda, hamda olgan bilimlari asosida nazoratlar topshirishda o'rganuvchi, axborot – ma'lumotli, nazorat qilish dastur-larining qo'llanilishi axborot texnologiyalari asosida masofadan o'qitish samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi. SHuning uchun xam ana shu funksiyalarning hammasini o'zida mujassamlashtirilgan elektron darsliklarni yaratish hozirgi kunning eng dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Ta'lim jarayonining samaradorligi axborotlarni talabalarga qanday tarzda, qanday texnologiyalar asosida berilishiga va ularni qanday qabul qilishga bog'liq.

SHu nuqtai nazardan kompyuter texnologiyalari: multimedia texnologiyalari, masofadan o'qitish tizimi, elektron qo'llanmalar, Internet tarmoqlari va hokazolar orqali fanlarni o'rganish jarayonini tashkillashtirish albatta ijobiy natija beradi deb umid qilish mumkin.

Talabalarga turli fanlardan bilim beruvchi o'qituvchi va mutaxassis kadrlar axborot texnologiyalari vositalalaridan foydalanishlari uchun, avval ularning bu sohadagi bilim darajalarini oshirish lozim. Bu ishda esa ta'lim muassasalarining barcha bo'limlarini texnik jihatdan ta'minlash, internet dan foydalanish imkoniyatlarini to'la yaratib berish orqaligini samarali natijaga erishish mumkin. Internetni masofali ta'limni amaliyatga tatbiq etish an'anaviy hamda masofali ta'lim

muhitni yaratadi, bu esa o‘z o‘rnida an’anaviy ta’lim tizimini sifatini oshiradi, chunki u umumiy ta’lim tizimida o‘zining raqobatbardoshligini ta’milashga intiladi va ta’limning umumiy darajasini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. «Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari» to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 24 aprel 2017 yil, Toshkent.
2. Смоляниова О.Г. Статья: Формирование информационной и коммуникативной компетентности будущего учителя на основе мультимедийных технологий //Ж-л «Информатика и образование», №9, 2012 год. – С 48-55.
3. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar . -T.: “Iste’dod” jamg‘armasi, 2008 -180 b.
4. Захарова И.Г. Информационные технологии в образовании: Учеб. пособие для студ. высш. пед. учеб. заведений. – М.: Издательский центр «Академия», 2003. – 192 с.